



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
INNOVATION  
RIVOJLANISH VAZIRIYI

# SPORTDA VA YOSH AVLOD JISMONIY TARBIYASIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

Respublika ilmiy retsenziyalangan  
onlayn-konferensiya

## MATERIALLARI



29-sentabr 2021-yil

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
ЖИСМОНИЙ МАДАНИЯТ ФАКУЛЬТЕТИ

**СПОРТДА ВА ЁШ АВЛОД ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯСИДА  
ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАР**

**ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В СПОРТЕ И ФИЗИЧЕСКОМ  
ВОСПИТАНИИ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ**

**INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN SPORT AND PHYSICAL  
EDUCATION OF YOUNG GENERATION**

**Республика илмий рецензияланган онлайн-конференция  
2021 йил 29 сентябрь**

# **5-ШЎБА: ҚАДРИЯТЛИ ЁНДАШУВ АСОСИДА ЎҚУВЧИЛАРДА ЖИСМОНИЙ СИФАТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ**

**QADRIYATLI YONDASHUV-BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA JISMONIY  
SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA**  
10.53885/edinres.2021.84.48.006

**Davronov N.I.**

Buxoro davlat universiteti “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi

## **АКСИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЕ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

Старший преподаватель кафедры теории и методики физического воспитания  
Бухарского государственного университета

## **AXIOLOGICAL APPROACH AS A MEANS OF THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL QUALITIES IN STUDENTS OF ELEMENTARY CLASSES**

Senior Lecturer of the Department of Theory and Methods of Physical Education,  
Bukhara State University

**Annotatsiya:** maqlada yosh avlodning ta'lif-tarbiyasi jarayonida qadriyatlarning o'rni,mohiyati va mazmuni hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlanirishda qadriyatli yondashuvning vosita sifatidagi ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** qadriyat, qadriyatli yondashuv, ta'lif, tarbiya, jarayon, jismoniy sifatlar, rivojlanish, barkamol shaxs.

**Аннотация:** В статье рассматриваются роль, сущность и содержание ценностей в образовательном процессе подрастающего поколения и значение ценностного подхода как инструмента в развитии физических качеств у младших школьников.

**Ключевые слова:** ценность, ценностный подход, образование, воспитание, процесс, физические качества, развитие, целостная личность.

**Annotation:** The article discusses the role, essence and content of values in the educational process of the younger generation and the importance of a valuable approach as a tool in the development of physical qualities in primary school students.


**Keywords:** value, value approach, education, upbringing, process, physical qualities, development, holistic personality.

Qadriyatlarning mohiyati, mazmuni, namoyon bo'lish shakllar bilan bog'liq muammolarning tahlili uzoq tarixga ega. Kishilar qadim zamonlardanoq o'zlarini o'rab turgan olam, undagi narsa, voqeа va hodisalar, odamlar o'rtasidagi munosabatlarga baho bergenlar, ularning qadri to'g'risida fikr yuritganlar. Zamonlar o'tishi, jamiyat rivoji davomida bu boradagi muammolar ko'paygan, ularni hal qilishning ahamiyati ortaverган. Qadriyatlar mavzusi bir qator dunyoqarashlarning asosida yotgan, ularning markaziy qismini tashkil qilgan.[1].

Qadriyatlar muayyan jamiyat va sinfga mansub kishilar turmushi va madaniyatining haqiqiy yoki ideal ne'matlari bo'lgan tabiat va jamiyat xodisalarining mohiyati yoki hodisaning bir jihatidir. Bu ne'matlarning qadriyatlar deyilishiga sabab – kishilar ularni qadrlaydilar, chunki bu qadriyatlar ularning shaxsiy va ijtimoiy turmushini boyitadi. SHuning uchun ham kishilar o'z tasarruflaridagi qadriyatlarni himoya qiladilar va o'zlarini uchun maqsad yoki ideal qadriyatlarni amalga oshirishga intiladilar.[2].

Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy – axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qullaniladigan falsafiy – sotsiologik va

akseologik tushuncha. Jamiyat, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsa, hodisa va voqealar: erkinlik, ezgulik, tenglik, tinchlik, haqiqat, ma'rifat, madaniyat, moddiy va ma'naviy boyliklar, obida- yodgorlik, go'zallik axloqiy xislat hamda fazilatlar, an'ana, urf-odat, udum va boshqalar hisoblanadi



### 1-rasm Qadriyat tushunchasi mazmuni

Bizning fikrimizcha qadriyat deyilganda, inson, millat jamiyat uchun ahamiyatli bulgan, ayrim shaxs, millat, elat yoki ijtimoiy guruhlarning ma'naviy-madaniy ehtiyojlari evolyusiyasi davomida vujudga kelgan, o'z manfaatlari va maqsadlari uchun xizmat qiladigan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar majmuini tushunamiz.[3]

Yuqoridagi qadriyatlar tizimi mohiyati va ularning inson hayoti va faoliyatidagi o'rni hamda ahamiyati nuqtai nazaridan tahlil qiladigan bo'lsak, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy faoliyat va jarayonlarning jamiyat xamda ijtimoiy sub'ektlar uchun ahamiyati, hayotning turli qirralarini aks etgiradigan muammolar xamda ularning echimlarini ifodalaydigan qarashlar, g'oyalar, ta'limotlar, talab va ehtiyojlarning real jarayonlar uchun qadr-qimmatini aniqlash **qadriyatli yondashuv** mazmunini tashkil etadi.

Yoshlarni har tomonlama jismoniy baquvvat qilib tarbiyalashga imkon beradigan, o'quvchilar jismoniy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan bu muammoni umumta'lim mакtab o'quvchilari jismoniy tarbiyasini tashkiliy va pedagogik jarayonlar bilan birga bir-biriga bog'lab kelgan uzviylikda ko'rib chiqish lozimligini keltirib chiqaradi, bunda qadriyatli yondashuvning ahamiyati katta.[4].

Yosh avlodning jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish tarbiyaning ajralmas qismi bo'lgan jismoniy tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiyaning maqsadi jamiyatning sog'lom, xushchaqchaq, har tomonlama jismoniy rivojlangan, mehnat va Vatan himoyasiga tayyor turgan yoshlarni tarbiyalashdan iborat uzoq muddatli, uyushtirilgan pedagogik jarayondir.

Tadqiqotlarimiz ko'rsatishicha, optimal harakatlanish bolalarning jismoniy rivojlanishi va qobiliyatining oshishi uchun katta imkon beradi.[5].

O'quvchilarda jismoniy sifatlarni har tomonlama rivojlantirish, ularning milliy qadriyatlarga e'tiborini oshirish, ma'naviy, axloqiy fazilatlarni tarkib toptirish uchun kichik maktab yoshi eng qulay davr hisoblanadi. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, shaxsnинг jismoniy shakllanishi va jismoniy tayyorgarlik dinamikasi o'quvchining mehnat qilish layoqati va izchil bajariladigan jismoniy mashqlarning xususiyatiga bog'liqdir.

Jismoniy sifatlarga (kuch, chidamlilik, egiluvchanlik, tezkorlik, chaqqonlik) tegishli.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari jismoniy tarbiyasi va ularda jismoniy sifatlarni rivojlantirishda sog'lomlashtirish, ta'lim berish va tarbiya berish vazifalarini amalga oshirish ko'zda tutiladi. Qadriyatli yondashuv asosida bu vazifalarni yaxlit holda bajarish imkoniyatlari kengayadi.[7].

Mamlakatimizda aholi sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yosh avlodni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratilmoqda. Sport musobaqalari va tadbirdari orqali yoshlarga milliy qadriyatlarni singdirish, o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat kabi tuyg'ulari singdirib boriladi. Mamlakatimizda aholi jismoniy madaniyatini oshirish borasida ko'plab amaliy ishlar qilinmoqda va bunga davlat masalasi sifatida qaraladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyun PQ-3031-son «Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori alohida ahamiyatga ega bo'lib, qarorda asosan jismoniy tarbiya va sport tadbirlarning yil davomida o'tkaziladigan dasturi ishlab chiqildi. Dasturning 4-bandida umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladigan jismoniy tarbiya va sport tadbirlar rejasi ham ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi.

Tahlillarimiz jarayonida qadriyatli yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirish maqsadida umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari bilan tashkil etiladigan jismoniy tarbiya va sport faoliyati asosan quyidagi yo'nalishlarda olib borilishi aniqlandi:

- jismoniy tarbiya darslari;
- darsdan tashqari jismoniy tarbiya ishlari;
- mактабдан ташқари жисмоний тарбија исхлари.



**2-rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirish shakllari**

Jismoniy tarbiya darsi umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar jismoniy tarbiyasining eng asosiysi hisoblanadi. Chunki dars qonun qoidalar asosida o'tkaziladi va

nazorati olib boriladi.[8]. Darsdan tashqari ishlarga darsgacha gimnastika mashqlari, jismoniy tarbiya daqiqalari, katta tanaffuslardagi uyushtiriladigan harakatli o'yinlar, ommaviy jismoniy tarbiya va sport bayramlari kiradi. Maktabdan tashqari ishlarga bolalar va o'smirlar sport maktabi sport to'garaklari, ko'rik-tanlovlar, ommaviy tadbirlar, sport musobaqalarini uyushtirish, hasharlarda, mehnat jarayonida ishtirok etish, bayram tantanalarida ishtirok etish, jamiyatning turli sohalarida muvafaqiyatga erishgan taniqli insonlar bilan uchrashuvlar tashkil qilish, davra suhbat, babs-munozara, seminar-treninglar tashkil etish kabi shakllarni kiritamiz.[9].

Xulosa qilibaytganda milliy qadriyatlarning pedagogik, ijtimoiy-psixologik jihatlarini o'rganish va shu asosda boshlang'ich sinf o'quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlanadirish va yoshlarni tarbiyalash amaliyotiga joriy qilish o'z madaniyatimiz va ma'naviy boyliklarimizning yuksaklikka ko'tarilishida asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Achilov A.M. Akramov J.A. Goncharova O.V. Bolalarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash. 2004 y. Toshkent.
2. Davronov N. I. DEVELOPMENT OF PHYSICAL QUALITIES OF CHILDREN IN THE HERITAGE OF OUR ANCESTORS //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2020. – T. 8. – №. 3.
3. Давронов Н. И. ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ ВРЕДНЫХ ПРИВЫЧЕК У ПОДРОСТКОВ НА ОСНОВЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА //EUROPEAN RESEARCH. – 2018. – С. 132-134.
4. Ismoilovich D. N. National folk games a means of development of physical attitudes in primary school students //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 12. – С. 166-169.
5. Мухитдинова Н.М. Методология физических упражнений и игр в дошкольных образовательных организациях // Проблемы науки.№9 (57), 2020. С. 81-83.
6. Мухитдинова Н.М. Механизм интеллектуального развития у детей дошкольного возраста с помощью спортивных игр //Academy. 2019. С.92-93.
7. Тураев М.М., Баймурадов Р.С., Файзиев Я.З. Интерактивные методы физического воспитания в вузах/ / Педагогическое образование и наука. № 3, 2020. С. 132-135.
8. Тураев М.М. МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ФИЗИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ИХ ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ// Проблемы науки.2021.24.02. стр35-37// <https://scienceproblems.ru/images/PDF/2021/61/pn-2-61-.pdf#page=36>
9. Давронов И. Э., Кулдашева З. Х. ФИЗИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ //Паённомаи фарҳанг. – 2017. – №. 2. – С. 86-89.

**IBN-SINO TA'LIMOTIDA JISMONIY TARBIYA MAZMUNI**  
10.53885/edires.2021.61.33.009

*Q.Q.Qobiljonov*

**Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasi o'qituvchisi**

*J.R.Jo'ravev*

**Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasi o'qituvchisi**

#### **ANNOTATSIYA**

Mazkur maqola qomusiy olim, mutafakkir, tib olamining sultonı Abu Ali ibn Sinoning inson, uning jismoniy va ruhiy kamoloti hamda kamolotga erishish omillari borasidagi g'oyalariga bag'ishlangan. Maqolani yozishda Ibn Sinoning falsafiy g'oyalaridan ham foydalanilgan. Xulosa qismida yakuniy g'oyalar ham keltirilgan

O'rroqova S. SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	135
Баймурадов Раджаб Сайфитдинович, Бахшуллаева Малохат, Жамилова Гульчехра.	
РОЛЬ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА В СИСТЕМЕ ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ.....	138
Qurbanov Shuhrat Qo'l doshvich, Shoximov Jonibek Jalolovich. JISMONIY TARBIYA VA SPORT, SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKILLANTIRISHDA ASOSIY VOSITA.....	144
Murodov F.O., Husenova S.S. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar salomatligini muhofaza qiluvchi muhitni shakllantirishning asoslari.....	146
<b>4-ШЎЬБА: АДАПТИВ ЖИСМОНИЙ МАДАНИЯТ ВА СПОРТ .....</b>	<b>149</b>
Шукуров Раҳим Салимович. ТАЛАБАЛАР ОРГАНИЗМИНИНГ АДАПТИВ МОСЛАШУВЧАНЛИГИ ВА САЛОМАТЛИК ЗАХИРАЛАРИНИНГ ЎЗГАРИШ ХУСУСИЯТЛАРИ .....	149
Yuldashev A.A. ТАЛАБА-ЁШЛАРНИНГ Соғлом турмуш тарзини ташкил этишда жисмоний маданият ва спортнинг ўрни.....	158
И.И.Сайдов, О.Ю.Толибова. ФОРМИРОВАНИЕ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОСТРАНСТВЕ .....	160
М.М.Тураев. СОДЕРЖАНИЕ ПРОЦЕССА ОРГАНИЗАЦИИ ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫХ ЗАНЯТИЙ ДЛЯ ЛЮДЕЙ ПОЖИЛОГО ВОЗРАСТА .....	164
Usmonov Alisher Sharifovich, Ibodov Dunyo. YENGIL ATLETIKA – AHOLI SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASH VA OLIMPIYA HARAKATINING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA .....	167
Я.З.Файзиев, Д.Я.Зиёев. ИНДИВИДУАЛЬНЫЕ ЗАНЯТИЯ ДЛЯ ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ ОПОРНО-ДВИГАТЕЛЬНОГО АППАРАТА.....	170
Р.А.Хасанов, Д.Зиёев. ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ СРЕДСТВАМИ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА .....	174
Баймурадов Раджаб Сайфитдинович, Тухтамурадова Нодира Абдужаббаровна. РОЛЬ ТВОРЧЕСКОГО ПОДХОДА К ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЯ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ .....	177
Я.З.Файзиев, М.Э.Сатторов. АДАПТИВ ҲАРАКАТГА КЕЛТИРУВЧИ РЕКРЕАЦИЯ ВА РЕАБИЛИТАЦИЯ ШАКЛЛАРИ .....	182
Ж.М.Эргашев. 11-13 ЁШЛИ БОКСЧИЛАРНИНГ СПОРТ МОТИВАЦИЯСИ .....	185
Z.Sh.Yusupova, A.T.Temirov, Z.Sh.Yusupova, A.T.Temirov. Boshlang'ich sinf o'quvchilar bilan olib boriladigan sport ishlarining pedagogik asoslari .....	188
Z.Sh.Yusupova, A.Y.Temirov, Z.Ш.Юсупова, А.Ю.Темиров. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etish.....	191
Иванков Ч.Т., Сигов М.В. Моделирование экстремальных ситуаций в профессионально - прикладной физической подготовке пожарных на основе специальных упражнений газодымозащитной службы МЧС РФ .....	194
М.Х.Тошев. Мактаб ўқувчиларини шахматга тайёрлашнинг шакллари.....	198
Иноятов Абдулло Шодиевич, Хусенов Нодир Нуриддинович. КЕКСА ЁШДАГИ КИШИЛАР ФУНКЦИОНАЛ ҲОЛАТИНИНГ ПЕДАГОГИК ПРОФИЛАКТИКАСИ .....	199
<b>5-ШЎЬБА: ҚАДРИЯТЛИ ЁНДАШУВ АСОСИДА ЎҚУВЧИЛАРДА ЖИСМОНИЙ СИФАТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ .....</b>	<b>207</b>
Davronov N.I. QADRIYATLI YONDASHUV-BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA JISMONIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA .....	207
Q.Q.Qobiljonov, J.R.Jo'rayev. IBN-SINO TA'LIMOTIDA JISMONIY TARBIYA MAZMUNI.....	210
Z.Sh.Yusupova. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI BILAN OLIB BORILADIGAN SPORT ISHLARINING PEDAGOGIK ASOSLARI .....	213